

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI
XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

**XORAZM VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2020 YIL
YANVAR-SENTYABR**

Urganch – 2020 yil

SO‘Z BOSHI

Xorazm viloyatining statistik axborotnomasi Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Xorazm viloyati statistika boshqarmasining yarim yillik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2020 yil yanvar-sentyabr oylari yakunlari bo'yicha Xorazm viloyatining asosiy statistik ko'rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko'rsatkichlar Evropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo'yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

SHu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo'llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo'naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog'–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari). Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog'i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo'jaligi faqatgina dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga olmay, balki o'rmon va baliq xo'jaliklari mahsulotlarini ham o'z ichiga oladi.

SHuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, YAlpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko'rsatkichlari yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya'ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo'lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorliksub'ektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o'rmonva baliq xo'jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to'g'risidagitahliliy ma'lumotlar keng yoritilgan.

Dastlabki hisoblarga asosan kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar keltirilmoqda.

MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	5
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT	6-11
II. SANOAT	12-27
III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI	28-45
IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH	46-62
V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK	63-67
VI. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	68-74
VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	75-91
VIII. XIZMATLAR	92-103
IX. TRANSPORT VA ALOQA	104-113
X. ISTE'MOL BOZORI	114-118
XI. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT	119-128
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	129-138
XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	139-146

Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	—	yalpi hududiy mahsulot	l.	—	litr
%.	—	foiz	0,0	—	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	—	milliard	m.	—	marta
mln.	—	million	—	—	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	—	million AQSH dollari	ga.	—	gektar
kv.	—	kvadrat	tn.	—	tonna
km.	—	kilometr	1), 2), 3) , , ,	—	izohning mavjudligi
m	—	metr	kvt.s	-	kilovatt soat
			gkall		gega kaloriya

**Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
2020 yil yanvar-sentyabr**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2019 yil yanvar-sentyabr oyiga nisbatan foiz hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot	14901,8	102,8
Sanoat mahsuloti	6656,3	105,6
Iste'mol tovarlari	4312,1	100,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	11751,3	104,4
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	4962,4	112,6
Qurilish ishlari	2222,1	101,8
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	648,2	113,2
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi-km)	5260,2	91,9
Chakana tovar aylanmasi	5867,6	91,9
Xizmatlar, jami	4711,2	102,3
Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH doll)	328,9	93,3
Eksport (mln. AQSH doll.)	129,9	114,3
Import (mln. AQSH doll.)	199,0	83,3
Saldo (+;-) (mln. AQSH doll.)	-69,1	x


I. YALPI HUDUDIIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yil yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YaHM) hajmi 14901,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019 yilning yanvar-sentyabr oyiga nisbatan o'sish sur'ati 102,8 foizga teng bo'ldi.

2020 yil yanvar-sentyabr oylarida YAHM deflyator indeksi 110,1 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)–milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda
2020 yil yanvar-sentyabr oylarida



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 104,3 foiz (umumiy ulushning 47,5 foizi), sanoat – 105,6 foiz (umumiy ulushning 13,3 foizi)ni tashkil qildi.


**Yanvar-sentyabr oylarida viloyat yalpi hududiy
mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi**

	<i>mlrd.so'm</i>		<i>2019 yil yanvar-sentyabr oyiga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2019 yil yanvar-sentyabr</i>	<i>2020 yil yanvar- sentyabr</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	13156,1	14901,8	102,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12580,0	14516,8	102,8
mahsulotlarga sof soliqlar	576,1	385,1	102,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12580,0	14516,8	102,8
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5889,7	6891,3	104,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2563,6	2 925,1	104,4
sanoat	1723,5	1 932,9	105,6
qurilish	840,1	992,3	101,8
Xizmatlar	4126,7	4700,4	99,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	781,6	828,6	94,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	777,4	855,8	102,0
boshqa xizmat tarmoqlari	2567,7	3016,0	100,8


2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga asosiy ta'siri 105,6 foiz – sanoat, 104,3 foiz – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmoqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 73,6 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi, bu ko'rsatkich 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida 74,3 foizni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, % da
(jamiga nisbatan foizda)

2019 yil yanvar-sentyabr



2020 yil yanvar-sentyabr



■ Mahsulotlarga sof soliqlar

■ Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati


■ Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

■ Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)

■ Xizmatlar


2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida YaHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasining ulushi 47,5 foizni tashkil qildi, bu esa 2019 yilning yanvar-sentyabr oyiga nisbatan 0,7 punktga ko'pdir (46,8 foiz), xizmatlar sohasi 32,4 foizni tashkil qildi va 0,4 punktga kamaydi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)ni ulushi 20,1 foizni tashkil qilib, 2019 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 0,3 punktga kamaydi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 7946,4 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 101,2 foiz oʻsishga erishildi.




**Xizmatlar sohasining yalpi qoʻshilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

2019 yil yanvar-sentyabr



2020 yil yanvar-sentyabr



- savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat koʻrsatuvchi boshqa tarmoqlar

2020 yil yanvar-sentyabr oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 32,4 foiz (2019 yil yanvar-sentyabr oylarida 32,8 foiz)ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 5,7 foizni (2019 yil yanvar-sentyabr oylarida 6,2 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 5,9 foizni (2019 yil yanvar-sentyabr oylarida 6,2 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 20,8 foizni (2019 yil yanvar-sentyabr oylarida 20,4 foiz) tashkil etdi.

**O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati bilan solishtirma
makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
(2020 yil yanvar-sentyabr)**

	<i>O'zbekiston Respublikasi</i>		<i>Xorazm viloyati</i>		<i>Respublikadagi ulushi, % da</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>yanvar- sentyabr 2019 y.</i>	<i>yanvar- sentyabr 2020 y.</i>
Yalpi ichki mahsulot (hududiy)	408296,6	100,4	14901,8	102,8	3,6	3,6
Sanoat	256747,5	97,3	6656,3	105,6	2,5	2,6
Istemol tovarlari	85290,2	102,3	4 312,1	100,1	5,0	5,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	180069,8	103,4	11751,3	104,4	6,5	6,5
Investitsiyalar	138106,6	91,3	4962,4	112,6	2,9	3,6
Qurilish ishlari	65154,6	108,6	2222,1	101,8	3,5	3,4
CHakana tovar aylanishi	135 930,1	99,8	5 867,6	91,9	4,7	4,3
Xizmatlar, jami	157 085,3	101,8	4 711,2	102,3	3,0	3,0
Eksport (mln. AQSH doll.)	12 471,3	94,0	129,9	114,3	0,9	1,0
Import (mln. AQSH doll.)	15 018,9	83,5	199,0	83,3	1,3	1,3

2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 14901,8 mlrd. so'mni, respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,6 foizni tashkil qilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,8 foizni tashkil qildi.

2020 yil yanvar-sentyabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6656,3 mlrd. so'mni (respublikada sanoat mahsulotlarining 2,6 foizini) tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan, o'sish sur'ati 105,6 foizni tashkil etdi. 2020 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatda 4312,1 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari (respublikada xalq iste'mol mahsulotlarining 5,1 foizi) ishlab chiqarilib, 2019 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 foizni tashkil etdi.

2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 11751,3 mlrd. so'mni (respublikada qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi 6,5 foiz)ni tashkil etib, 2019 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,4 foizga etdi.

2020 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbaalari hisobidan 4962,5 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, o'sish sur'ati 2019 yilning shu davriga nisbatan 112,6 foizni (respublikadagi ulushi 3,6 foiz) tashkil etdi.

2020 yil yanvar-sentyabr oylarida 2222,1 mlrd. so'mlik (respublikadagi ulushi 3,4 foiz) qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,8 foizni tashkil etdi.

2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5867,6 mlrd. so'mni (respublikadagi ulushi 4,3 foiz), o'sish sur'ati 2019 yilning shu davriga nisbatan 91,9 foizni tashkil qildi.

2020 yil yanvar-sentyabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 4711,2 mlrd. so'mni, (respublikadagi ulushi 3,0 foizni) tashkil qildi va 2019 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan o'sish 102,3 foizni tashkil etdi.


Tashqi savdo aylanmasi 2020 yilning oylarida yanvar-sentyabrida 328,9 mln. AQSH dollarini (respublikadagi ulushi 1,2 foizni), o'sish sur'ati 93,3 foizni, jumladan: eksport – 129,9 mln. AQSH dollarini (respublikadagi ulushi 1,0 foizni), o'sish sur'ati 114,3 foizni, import–199,0 mln. AQSH dollarini (respublikadagi ulushi 1,3 foizni), o'sish sur'ati 83,3 foizni tashkil etdi.

II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6656,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 105,6 foizni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 103,5 % ga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 89,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 103,0 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 107,4 %ga o'sishi kuzatildi.

Asosiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %



- Ishlab chiqaradigan sanoat;
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash;
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish;
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

**2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat
turlarini sanoat ishlab chiqarish hajmi mlrd. so‘m**



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020 yil yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,0 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,030 % ni va o‘sinh sur‘ati indeksi 89,5 ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat

2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6350,5 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,406 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ning ulushi 0,01 % ni (2019 yil yanvar-sentyabr oylarida – 0,02 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 49,1% (51,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 6,8 % (5,9 %) va quyi texnologiyali – 39,4 % (36,9 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**



Jami viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 0,4 mlrd. soʻmlik (2019 yil yanvar-sentyabr oylarida 1,0 mlrd. soʻm), oʻrta-yuqori texnologiyali tarmoqda 3271,3 mlrd. soʻmlik (2994,5 mlrd. soʻm), oʻrta-quyi texnologiyali tarmoqda 454,2 mlrd. soʻmlik (342,8 mlrd. soʻm), quyi texnologiyali tarmoqda 2624,7 mlrd. soʻmlik (2135,6 mlrd. soʻm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
natura koʻrinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2020 yil yanvar-sentyabr oylari uchun)**

<i>Mahsulot turlari</i>	<i>Oʻlchov birligi</i>	<i>2020 yil yanvar-sentyabr</i>	<i>2019 yil yanvar-sentyabr</i>	<i>2019 yil yanvar-sentyabr oyiga nisbatan, % da</i>
Engil avtomobillar (maxsus engil avtomobillarsiz)	Dona	39631,0	36836,0	107,6
Maxsus engil avtomobillar	Dona	6259,0	5372,0	116,5
Aroq	Ming litr	290,8	793,0	36,7
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari	Ming litr	9,0	16,2	55,7

<i>Mahsulot turlari</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2020 yil yanvar-sentyabr</i>	<i>2019 yil yanvar-sentyabr</i>	<i>2019 yil yanvar-sentyabr oyiga nisbatan, % da</i>
Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari	Ming litr	563,6	897,3	62,8
YUmshoq bug'doy va spelta uni	Tonna	69644,2	59367,8	117,3
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr (buxanka)	Tonna	27,4	0,0	0,0
Milliy non (yopilgan non)	Tonna	0,0	0,0	0,0
Tozalangan o'simlik yog'i	Tonna	7576,2	10566,2	71,7
Xo'jalik sovuni	Tonna	2955,0	4670,0	63,3
Paxta tolasi	Tonna	39663,0	32820,8	120,8
Paxta chigiti	Tonna	64187,3	51674,1	124,2

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan aroq – 502,2 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari– 7,2 ming litrga, tarkibida 15 %dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – 333,7 ming litrga, tozalangan o'simlik yog'i –2990 tonnaga, xo'jalik sovuni –1715 tonnaga ishlab chiqarish kamaygan.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 256,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,847 % ni) tashkil etdi.

2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati indeksi 103,0% ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2020 yil yanvar-sentyabr oylari uchun)

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2020 yil yanvar-sentyabr</i>	<i>2019 yil yanvar-sentyabr</i>	<i>2019 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, % da</i>
Elektroenergiya	<i>mln.kVt/ch</i>	201,3	446,3	45,1
Issiqlik energiyasi	<i>ming Gkal</i>	60,7	72,1	84,2

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,717 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2020 yil yanvar-sentyabr oylari uchun)

<i>Faoliyat turlari</i>	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2020 yil yanvar-sentyabr</i>	<i>2019 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, % da</i>
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar	<i>mlrd.so‘m</i>	71,4	119,5
Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	<i>mlrd.so‘m</i>	3,2	113,7
SHahar xo‘jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar	<i>mlrd. so‘m</i>	15,3	159,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2020 yil yanvar-sentyabr oylari uchun)


<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>2020 yil yanvar-sentyabr</i>	<i>2019 yil yanvar-sentyabr</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami	6656,3	5780,4
Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	2,0	1,8
<i>ulardan:</i>		
Tog' - kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	2,0	1,8
Qayta ishlash sanoati	6350,5	5473,8
<i>shundan:</i>		
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	933,9	840,7
Ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	232,1	189,1
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1281,3	937,8
Kiyim ishlab chiqarish	40,1	16,1
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2,9	4,2
YOg'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlari, ishlab chikarish	6,1	6,9
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	30,7	15,2
YOzilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	1,0	1,3
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,7	0,5
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	28,1	31,5
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	0,1	0,6
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	38,3	36,0
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	240,1	156,8
Metallurgiya sanoati	29,7	24,4

<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>2020 yil yanvar-sentyabr</i>	<i>2019 yil yanvar-sentyabr</i>
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	135,3	109,5
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,3	0,4
Elektr uskunarlar ishlab chiqarish	18,6	21,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunarlar ishlab chiqarish	148,9	354,1
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	3075,4	2587,1
Mebel ishlab chiqarish	35,0	31,7
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	61,6	92,7
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	10,0	15,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	256,0	266,9
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	47,8	37,9


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab quvvatlash, kichik biznes sub'ektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 4312,1 mlrd. so'mni iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2019 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 foizni tashkil qildi.

**2019-2020 yil yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi va o'sish surati, %**



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat va alkohol mahsulotlari 981,7 mlrd.so'mni va 3330,4 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan 2019 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 86,6 foiz va 104,9 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 64,8 foizni (2019 yil yanvar-sentyabr oylarida 74,5 foiz) tashkil qildi.




Hududlar bo'yicha sanoat va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish
(2020 yil yanvar-sentyabr oylari uchun)
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)

<i>SHahar va tumanlar nomi</i>	<i>Sanoat mahsulotlari, mlrd. so'mda 1)</i>	<i>2019 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi %</i>	<i>Iste'mol tovarlari, mlrd. so'm 1)</i>	<i>2019 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, % da</i>
Xorazm viloyat bo'yicha	6656,3	105,6	4312,1	100,1
Urganch sh.	1239,6	94,1	579,0	96,7
Xiva sh.	107,3	107,2	75,7	96,4
Bog'ot	216,2	100,9	155,0	100,5
Gurlan	253,6	101,3	99,2	73,7
Qo'shko'pir	115,8	108,0	46,1	74,4
Urganch	287,1	107,6	194,2	89,5
Hazorasp	197,7	100,8	56,6	70,4
Tuproqqal'a	3184,9	109,2	2676,0	107,1
Xonqa	306,2	90,2	166,8	100,2
Xiva	167,9	133,3	58,8	61,3
Shovot	205,2	119,8	92,8	100,2
Yangiariq	186,0	130,6	63,9	86,7
Yangibozor	188,8	150,2	48,0	88,0

¹⁾ *Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda*

Sanoat ishlab chiqarishda hududlarning ulushi, % da



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Tuproqqal'a tumani 47,9 foiz, Urganch shahri 18,6 foiz, Xonqa 4,6 foiz, Urganch tumani 4,3 foiz, Gurlan tumani 3,8 foiz, Bog'ot tumani 3,2 foizni va hamda eng past bo'lgan Xiva tumani 2,5 foiz, Qo'shko'pir tumani 1,7 foiz va Xiva shahri 1,6 foizni tashkil qildi.


**2020 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan
sanoat mahsulotlari va iste’mol mollari ishlab chiqarish, *ming so‘m***

<i>SHahar va tumanlar nomi</i>	<i>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish</i>	<i>Iste’mol mollari</i>
Xorazm viloyati bo‘yicha	3549,5	2299,4
Urganch sh.	8596,0	4015,3
Xiva sh.	1158,9	817,7
Bog‘ot	1312,9	941,0
Gurlan	1710,0	669,2
Qo‘shko‘pir	672,2	267,4
Urganch	1443,7	976,4
Hazorasp	1021,0	292,1
Tuproqqal’a	57643,8	48433,8
Xonqa	1642,8	894,7
Xiva	1152,3	403,8
Shovot	1206,9	545,7
Yangiariq	1602,6	550,9
Yangibozor	2161,8	550,1

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Tuproqqal’a tumanida (57643,8 ming so‘m), Urganch shahrida (8596,0 ming so‘m), o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (3549,5 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Qolgan Xiva shahri (1158,9 ming so‘m), Xiva tumani (1152,3 ming so‘m), Hazorasp tumani (1021,0 ming so‘m)va Qo‘shko‘pir tumanida (672,2 ming so‘m) past ko‘rsatkich ekanligini ko‘rish mumkin.

2020 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste‘mol mollarning o‘sishi, 2019 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan %da





Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik tadbirkorlik sub’ektlari sanoat ishlab chiqarishda yildan yilga ularning xissasi tobora ortib bormoqda.

Xususan, 2020 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatda ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 96,2% ga oshishini ta’minladi va ishlab chiqarish hajmi 1759,1 mlrd.so‘mni, o‘z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 26,4 % tashkil etmoqda.

**Hududlar bo'yicha yirik va kichik biznesning sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarishdagi ulushi, % da
(2020 yil yanvar-sentyabr oylari)**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (100,0 %), Xiva (100,0%), Urganch (75,9%), Bog'ot (71,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Yangiyo'l (25,6 %) va Tuproqqal'a (2,7 %) tumanlarida kuzatildi.


Qo'shma korxonalarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida 25 ta qo'shma korxonalar tomonidan 785,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi esa 11,8 % ni tashkil etdi.

**Viloyatda qo'shma korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.**




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda hududlar bo'yicha qo'shma korxonalarning umumiy hajmidagi ulushi %




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3429 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 700 tasi (20,4 %) – Urganch shahriga, 401 tasi (11,7 %) – Urganch tumani, 311 tasi (9,1%) – Xiva shahri, 301 tasi (8,8%) Xonqa tumani hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2020 yil yanvar-sentyabr)



Viloyatda joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida 790 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo'lib, shularning 125 tasi Urganch shahriga, 86 tasi Xiva shahriga, 81 tasi Qo'shko'pir tumaniga to'g'ri keladi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 32 ta loyiha bo'yicha 65,5 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2019 yil yanvar-sentyabr	2020 yil yanvar-sentyabr
Loyihalar soni, birlik	11	32

	2019 yil yanvar-sentyabr	2020 yil yanvar-sentyabr
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	8	23
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	24,6	65,5

Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishida o'zgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir;

Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarida (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash Evrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;


Mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI


2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 11751,3 mlrd. so‘mni yoki 2019 yilning shu davriga nisbatan 104,4 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 11524,6 mlrd. so‘mni (104,1 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,04 mlrd. so‘mni (66,6 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 88,0 mlrd. so‘mni (101,9 foiz), baliqchilik xo‘jaliklarida 138,6 mlrd. so‘mni (145,0 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari(xizmatlar)ning hajmi va o‘rish sur‘atlari



Xususan, yuqori o‘rta sur‘ati Tuproqqala tumani (110,2 foiz), Yangibozor tumani va Xiva shaharlari (108,9 foiz), Bog‘ot (107,7 foiz) tumanlarida kuzatildi. Aksincha, eng past o‘zgarish Urganch shahri (100,8 foiz) va Xiva tumanlarida (100,9 foiz) kuzatildi.


Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulot (xizmat) larini hududlar kesimida taqsimlanishi(foiz hisobida)



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida ulishi quyidagicha: Urganch tumani 11,5, Xonqa va Shovot tumanlarining ulushi 10,6 foizni tashkil etdi va hududlar bo‘yicha etakchilik qilmokda, Xiva, Urganch shaharlari va Tuproqqala tumani mos ravishda 0,3 foiz, 2,1 foiz va 2,2 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egallashdi, eng kam ulush Xiva (0,3 foiz) shahrida qayd etildi.


Qishloq xo‘jaligi sohasida 2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida 11452,9 mlrd so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2019 yilning mos davriga nisbatan 104,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 104,1 foizni va chorvachilik mahsulotlari 104,0 foizni tashkil qildi.

2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2020 yil yanvar-sentyabr oylarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 77,8 foizini tashkil qildi. (2019 yil yanvar-sentyabr oylarida – 79,1 foiz), fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 20,7 foizi ishlab chiqarilgan (2019 yil yanvar-sentyabr oylarida 20,1 foiz), shuningdek qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 1,5 foizini (2019 yil yanvar-sentyabr oylarida – 0,8 foiz) tashkil etdi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida 11452,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 4515,0 mlrd. co'mga teng qismi yoki 39,4 foizi dehqonchilik, 6937,9 mlrd. so'mga teng qismi yoki 60,6 foizi chorvachilik sohasiga to'g'ri keladi.

2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda dehqonchilik mahsulotlari etishtirishda Bog'ot (46,9 foiz), Yangibozor (45,9 foiz) va Xonqa (43,2 foiz) tumanlarida yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Eng kam ulush Urganch (2,7 foiz) va Xiva (25,2 foiz) shaharlarida qayd etildi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahrida (97,3 foiz) hamda Shovot va Hazorasp (63,8 foiz) tumanlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining hududlar hamda xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi kuzatildi. 2020 yilning yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko'ra fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Tuproqqala tuman (32,8 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Xiva va Urganch shaharlarida (99,9 va 100,0 foizi) va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Xonqa (3,1 foizi) tumanida qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich esa Yangiariq (17,0 foiz) va Xiva (17,1 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Tuproqqala (67,0 foizi) hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch va Xiva shaharlarida (mahsulot etishtirilmagan) qayd etildi.



Dehqonchilik. 2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 4515,0 mlrd. so'mni yoki jami etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining 39,4 foizini tashkil qildi.

2019 yilning shu davriga nisbatan 104,1 foizni, jumladan, fermer xo'jaliklarida 2121,0 mlrd. so'mni (102,8 foiz), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 2329,7 mlrd. so'mni (102,0 foiz), qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 64,3 mlrd. so'mni (6,4 marta ko'p) tashkil qildi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Hosil yig'imi. 2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 329740 tonna don mahsulotlari (102,8 foiz), shundan 264174 tonna boshqoli don, jumladan 260472 tonna bug'doy, 101380 tonna kartoshka (104,1 foiz), 392538 tonna sabzavot (106,3 foiz), 105487 tonna poliz (111,0 foiz), 122724 tonna meva va rezavor (103,1 foiz), 31801 tonna uzum (103,7 foiz) yig'ib olindi.




Chorvachilik. 2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 6937,9 mlrd. so'mni yoki 2019 yilning shu davriga nisbatan 104,0 foizni, jumladan, fermer xo'jaliklarida 248,4 mlrd. so'mni (95,8 foiz), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 6576,9 mlrd. so'mni (104,0 foiz), qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 112,6 mlrd. so'mni (130,7 foiz) tashkil qildi.

Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo'jaliklari toifalari bo'yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)



2020 yilning 1 oktyabr holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 104,4 foizni (jami 896,7 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 101,7 foizni (340,4 ming bosh), qo'y va echkilar 103,8 foizni (434,1 ming bosh), otlar 102,8 foizni (5,0 ming bosh), parrandalar 100,5 foizni (5750,7 ming bosh) tashkil qildi.

2020 yil 1 oktyabr holatiga chorva mollari bosh sonlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi




■ Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

■ Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

■ Fermer xo'jaliklari

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 99,4 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,7 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 72,3 foizni tashkil etdi.

CHorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2020 yil 1 oktyabr holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	ming bosh	o'sish sur'ati, %
Yirik shoxli qoramol	896,7	104,4
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	59,2	116,5
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	831,7	103,7

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	5,8	103,6
ulardan: sigirlar	340,4	101,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	22,0	123,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	316,6	100,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1,8	120,0
Qo'y va echkilar	434,1	103,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	53,3	120,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	377,7	101,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	3,1	155,0
Otlar, bosh	5046	102,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	528	104,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	4503	102,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15	166,7
Parrandalar	5750,7	100,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	657,9	116,9
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	3753,7	104,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1339,1	84,5

**2020 yil yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan
chorvachilik mahsulotlari**


	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	126,9	103,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	3,4	95,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	122,8	103,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	0,7	92,8
Sut, ming tonna	884,7	104,4
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	30,8	112,7
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	851,6	104,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	2,3	100,9
Tuxum, mln. dona	407,9	108,3
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	27,9	121,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	267,2	104,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	112,8	115,9
Jun, tonna	1057	100,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	70	122,8
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	984	99,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	3	75,0
Qorako'l teri, dona	7275	107,4
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	461	134,0

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	6814	105,9

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida - -

Fermer xo'jaliklari. 2020 yilning yanvar-sentyabr oylarda fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2369,4 mlrd. so'mni yoki 2019 yilning tegishli davriga nisbatan 102,1 foizni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 20,7 foizni tashkil etdi.

Fermer xo'jaliklarida etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanishi (foizda)




2020 yilning 1 oktyabr holatiga fermer xo'jaliklarida 59,2 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 22,0 ming bosh sigir, 53,3 ming bosh qo'y va echkilar, 657,9 ming bosh parrandalar mavjud bo'lib, 2019 yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 116,5 foizni, shu jumladan sigirlar 123,6 foizni, qo'y va echkilar 120,6 foizni, parrandalar 116,6 foizni tashkil qildi.

**2020 yil yanvar-sentyabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan
asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari**


	yanvar-sentyabr				2019 yanvar-sentyabr oylariga nisbatan foiz hisobida
	2019 yil		2020 yil		
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Jami don	205696	64,1	212193	64,4	103,2
Boshqoli don	172227	67,0	176461	66,8	102,5
Bug‘doy	170881	66,8	173436	66,6	101,5
Kartoshka	9030	9,3	10786	10,6	119,4
Sabzavot	37541	10,2	43186	11,0	115,0
Poliz	39225	41,3	43710	41,4	111,4
Meva	39136	32,9	42885	34,9	109,6
Uzum	6692	21,8	7594	23,9	113,5
Go’sht, tirik vaznda	3511	2,9	3358	2,6	95,6
Sut	27276	3,2	30730	3,5	112,7
Tuxum, mln. dona	23,0	6,1	27,9	6,8	121,3
Jun, tonna	57	5,4	70	6,6	122,8
Qorako‘l, dona	344	5,1	461	6,3	134,0

**2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida asosiy
turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Jami don (tonna)
Jami viloyat bo'yicha
329740




Boshqli don (tonna)
Jami viloyat bo'yicha
264174



Bug'doy (tonna)
Jami viloyat bo'yicha
260472




Qartoshka (tonna)
Jami viloyat bo'yicha
101380




**2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida asosiy
turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sabzavot (tonna)
Jami viloyat bo'yicha
392538




Poliz (tonna) Jami viloyat
bo'yicha
105487



Meva va rezavorlar
(tonna) Jami viloyat
bo'yicha
122724




Uzum (tonna)
Jami viloyat
bo'yicha
31801




**2020 yil 1 oktyabr holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


**Yirik shoxli
qoramollar(*bosh*)**
Jami viloyat bo'yicha
896736




**shu jumladan
sigirlar(*bosh*)**
Jami viloyat bo'yicha
340400



Qo'ylar va echkilar (*bosh*)
Jami viloyat bo'yicha **434093**



Parrandalar (*ming bosh*)
Jami viloyat bo'yicha **5750,7**




2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Go'sht (ming tonna)

Jami viloyat


bo'yicha 126,9



Sut (ming tonna)

Jami viloyat


bo'yicha 884,7



Tuxum (mln. dona)


Jami viloyat

bo'yicha 408,0




Jun (tonna)Jami viloyat

bo'yicha 1057



Baliq (tonna)
Jami viloyat
bo'yicha 7909



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

CHorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.


O'rmon xo'jaligi – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va etishtirish ham hisobga olinadi. SHuningdek yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliq xo'jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek ushbu sohani rivojlantirish, zahiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

Fermer xo'jaliklari - ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

IV. INVESTITSIIYALAR VA QURILISH


2020 yil yanvar - sentyabr oylarida viloyatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 4962,4 mlrd. soʻm (dollar ekvivalentida 499,2 mln. AQSH doll.) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, 2019 yilning shu davriga nisbatan 112,6 % ni, shundan xorijiy investitsiyalar 1211,2 mlrd. soʻmni (jamiga nisbatan ulushi 24,4 %) tashkil etdi.




2020 yilning yanvar–sentyabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan koʻpi, yaʼni 50,1 % viloyatning 4 ta tumani hissasiga, jumladan Urganch shahri 22,9 %, Bogʻot tumani 8,4 %, Xonqa tumani 11,1 % va Yangibozor tumani 7,7 % toʻgʻri keladi.

Ayrim tumanlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori oʻsish surʼatlari kuzatildi. Jumladan oʻtgan yilning shu davriga nisbatan Xonqa tumani 174,8 %, Xiva shahri 151,5 %, Hazorasp tumani 116,8 %, Gurlan tumani 152,3 % va Yangibozor tumani 169,3 % oʻsish kuzatildi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (% da)



2020 yilning yanvar–sentyabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar xajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri 7883,3 ming so'm (107,2 %), Yangibozor tumani 4380,1 ming so'm (166,8 %) va Xiva shahri 3788,2 ming so'm (149,3 %) qayd qilindi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar
(2020 yil yanvar - sentyabr oylarida)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan %</i>
--	-------------------	----------------------------------	-------------------------------

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	4962,4	112,6	100,0
--	---------------	--------------	--------------

shu jumladan:

Markazlashgan investitsiyalar:	726,3	81,2	14,6
---------------------------------------	--------------	-------------	-------------

byudjet mablag'lari	352,5	67,9	7,1
---------------------	-------	------	-----

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	142,5	2,6 m.	2,9
--	-------	--------	-----

tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	-	-	-
---	---	---	---

hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	231,3	2,5 m.	4,6
--	-------	--------	-----

Markazlashmagan investitsiyalar:	4236,1	120,6	85,4
---	---------------	--------------	-------------

korxonalarning o'z mablag'lari	1271,4	185,2	25,6
--------------------------------	--------	-------	------

aholi mablag'lari	864,8	87,3	17,4
-------------------	-------	------	------

xorijiy investitsiya va kreditlar	980,0	95,4	19,8
--------------------------------------	-------	------	------

shundan:

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya	268,5	26,4	5,4
---	-------	------	-----


tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1119,9	138,7	22,6
---	--------	-------	------

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi
(2020 yil yanvar-sentyabr)

	<i>jami</i>	<i>Davlat</i>	<i>Nodavlat</i>
Jami, mlrd. so‘m	4962,4	854,9	4107,5
<i>shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan foiz ko‘rinishida</i>			
qurilish-montaj ishlari	41,6	86,3	32,3
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar	51,5	9,8	60,1
Boshqa harajatlar	6,9	3,9	7,6


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyat bo‘yicha qurilish – montaj ishlarining ulushi 41,6 % ni, mashina, uskuna, inventar sotib olishga harajatlar 51,5 % ni hamda boshqa harajatlar ulushi 6,9 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari




Viloyatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari 2020 yil yanvar-sentyabr oylarida mos ravishda 14,6 % va 85,4 % ni tashkil qilib, ushbu ko‘rsatkichlarning ulushlari o‘tgan yilning shu davrida 20,3 % va 79,7 % ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari (ulushi % da)



